

---

## Theoretical and Methodological Foundations of the Communicative Approach in Teaching English in Medical Universities

Butunbayeva Aziza Sayfullo qizi

[abutunbaeva92@gmail.com](mailto:abutunbaeva92@gmail.com)

PhD student,

Uzbekistan State World Languages University

### Annotation

*In the context of globalization, proficiency in English has become increasingly important for medical professionals. English serves as the primary medium of international scientific communication, medical research, and professional interaction. This article provides a comprehensive analysis of the current challenges in teaching English in medical higher education institutions and examines the theoretical and methodological foundations of the communicative approach as an effective means of addressing these issues. The leading role of English in scientific communication and professional practice is substantiated. The study explores the essence of the communicative approach, its connection with the concept of communicative competence, and its structural components, including grammatical, discourse, sociocultural, and strategic competences. Particular attention is paid to the key principles of communicative language teaching, such as the use of authentic materials, learner-centered instruction, and the integration of all language skills. The article also highlights the specific features of teaching medical English within the framework of English for Specific Purposes (ESP). Furthermore, it analyzes existing methodological challenges in teaching English in medical universities in Uzbekistan. The findings justify the need to integrate the communicative approach, ESP methodology, and task-based learning technologies to enhance students' professional communicative competence.*

### Keywords

*Communicative approach, communicative competence, medical English, English for specific purposes (ESP), speech skills, language teaching methods, professional communication*

---

## Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy va metodik asoslari

Butunbayeva Aziza Sayfullo qizi

[abutunbaeva92@gmail.com](mailto:abutunbaeva92@gmail.com)

PhD doktoranti,

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

### Annotatsiya

*Bugungi globallashtirish sharoitida tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun ingliz tilini mukammal bilish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro ilmiy hamkorlik, tibbiy tadqiqotlar hamda professional tajriba almashish jarayonlarida ingliz tili asosiy muloqot vositasi hisoblanadi. Mazkur maqolada tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishning dolzarb muammolari hamda ularni hal etishda kommunikativ yondashuvning nazariy va metodik asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda ingliz tilining xalqaro ilmiy hamkorlik, tibbiy tadqiqotlar va professional kommunikatsiyadagi yetakchi o'ri ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Kommunikativ yondashuvning mazmun-mohiyati, uning kommunikativ kompetensiya tushunchasi bilan uzviy bog'liqligi hamda ushbu kompetensiyaning*

tarkibiy komponentlari (grammatik, diskurs, sotsiokultural va strategik kompetensiyalar) tizimli ravishda yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillari, xususan autentik materiallardan foydalanish, o'quvchi markazli ta'limni tashkil etish hamda nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalash masalalari keng tahlil qilinadi. Maqolada ESP metodikasi doirasida tibbiy ingliz tilini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari ochib berilib, kasbiy kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda uning ahamiyati asoslanadi. O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyotidagi muammolar, jumladan o'quv vaqtining cheklanganligi, metodik yondashuvlarning yetarli darajada qo'llanilmasligi hamda sohaviy terminologiyani o'rgatishdagi tizimsizlik tanqidiy tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari kommunikativ yondashuv, ESP metodikasi va vazifaga asoslangan ta'lim texnologiyalarini integratsiyalash tibbiyot talabalari kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda samarali metodik asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi hamda ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

**Kalit so'zlar** *Kommunikativ yondashuv, kommunikativ kompetensiya, tibbiy ingliz tili, ESP, nutq ko'nikmalari, til o'qitish metodikasi, kasbiy kommunikatsiya*

---

## **Теоретические и методические основы коммуникативного подхода в обучении английскому языку в высших медицинских учебных заведениях**

**Бутунбаева Азиза Сайфулло кизи**  
[abutunbaeva92@gmail.com](mailto:abutunbaeva92@gmail.com)  
Докторант (PhD),  
Узбекский государственный университет  
мировых языков

**Аннотация** *В условиях глобализации владение английским языком приобретает особую значимость для специалистов в сфере медицины. Английский язык выступает основным средством международного научного сотрудничества, медицинских исследований и профессионального взаимодействия. В данной статье комплексно анализируются актуальные проблемы преподавания английского языка в медицинских высших учебных заведениях и рассматриваются теоретические и методические основы коммуникативного подхода как эффективного средства их решения. Обосновывается ведущая роль английского языка в научной коммуникации и профессиональной деятельности. Раскрывается сущность коммуникативного подхода, его связь с понятием коммуникативной компетенции и её структурными компонентами (грамматической, дискурсивной, социокультурной и стратегической). Особое внимание уделяется основным принципам коммуникативного обучения, включая использование аутентичных материалов, организацию обучающего процесса, ориентированного на учащегося, и интеграцию всех видов речевой деятельности. Рассматриваются особенности преподавания медицинского английского языка в рамках ESP-подхода. Анализируются проблемы, существующие в практике преподавания в медицинских вузах Узбекистана.*

*Обосновывается необходимость интеграции коммуникативного подхода, ESP и технологий обучения, ориентированных на выполнение задач.*

**Ключевые слова**

*Коммуникативный подход, коммуникативная компетенция, медицинский английский язык, английский язык для специальных целей (ESP), речевые навыки, методика преподавания языка, профессиональная коммуникация*

**Kirish**

Bugungi globallashuv sharoitida ilm-fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishiga olib kelmoqda. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar natijalarining tezkor almashinuvi, qo'shma ilmiy loyihalar tashkil etilishi hamda ilmiy axborotning xalqaro miqyosda tarqalishi ilmiy kommunikatsiyaning yagona vositasini talab etadi. Hozirgi kunda ingliz tili global ilmiy hamjamiyatda yetakchi kommunikatsiya vositasi sifatida shakllangan bo'lib, turli fan sohalarida, xususan tibbiyotda ilmiy axborotni tarqatish va almashishda muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa tibbiyot sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning katta qismi ingliz tilida chop etilishi kuzatiladi. Xalqaro ilmiy jurnallarning aksariyati ingliz tilida nashr qilinishi hamda tibbiy ilmiy maqolalarning asosiy qismi ingliz tilida e'lon qilinishi tibbiyot mutaxassislaridan ushbu tilni yuqori darajada egallashni talab etadi. Shu sababli ingliz tili zamonaviy tibbiyot sohasida nafaqat ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish, balki professional kommunikatsiyani ta'minlashning muhim vositasiga aylangan. Shu bilan birga, til madaniyatlararo kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida turli madaniyat vakillari o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi (Minasova, 2000).

O'zbekistonda ham oliy ta'lim tizimida xorijiy tillarni o'qitishni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish hamda ularni xalqaro tibbiy hamjamiyat bilan samarali

muloqot qilishga tayyorlashga qaratilgan bo'lishi zarur. Biroq amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim muassasalarida chet tilini o'qitish jarayoni ko'pincha grammatik qoidalar va leksik birliklarni o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, talabalarning haqiqiy kommunikativ vaziyatlarda tilni qo'llash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlanmaydi. Natijada talabalar nazariy bilimlarga ega bo'lsalar ham, kasbiy muloqot jarayonida ingliz tilidan samarali foydalanishda qiyinchiliklarga duch keladilar. Shu sababli zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv muhim o'rin egallab, tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashga qaratilgan pedagogik yondashuv sifatida keng qo'llanilmoqda. Mazkur yondashuv tilni nafaqat grammatik tizim sifatida o'rganishni, balki uni turli kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni ham nazarda tutadi. Shu nuqtai nazardan, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuvning nazariy va metodik asoslarini o'rganish hamda uning ta'lim jarayonidagi samaradorligini tahlil qilish dolzarb ilmiy masalalardan biri hisoblanadi.

**Kommunikativ yondashuvning nazariy asoslari**

Kommunikativ yondashuv (Communicative Language Teaching – CLT) XX asrning ikkinchi yarmida chet tilini o'qitish metodikasida yuzaga kelgan yangi pedagogik paradigma sifatida shakllangan. Ushbu yondashuv tilni faqat grammatik qoidalar tizimi sifatida o'rganishga emas, balki uni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llashga

qaratilganligi bilan ajralib turadi. Til o'qitish metodikasining rivojlanishida kommunikativ yondashuv grammatika-tarjima metodining cheklangan imkoniyatlarini bartaraf etishga qaratilgan muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Kommunikativ yondashuv nazariy jihatdan kommunikativ kompetensiya tushunchasiga asoslanadi. Mazkur tushuncha birinchi bor amerikalik tilshunos D. Hymes tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u tilni egallash jarayonida nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki til birliklarini muayyan ijtimoiy kontekstda

to'g'ri qo'llash qobiliyatini ham o'z ichiga olishini ta'kidlaydi (Hymes, 1972). Hymesga ko'ra, tilni bilish faqat grammatik strukturalarni o'zlashtirish bilan cheklanmaydi, balki muloqot jarayonida tilni samarali va maqsadga muvofiq qo'llashni ham nazarda tutadi. Keyinchalik Canale va Swain (1980) kommunikativ kompetensiya tushunchasini yanada rivojlantirib, uning tarkibiy tuzilishini aniqlab berdilar. Ularning fikriga ko'ra, kommunikativ kompetensiya quyidagi to'rt asosiy komponentdan iborat:

Komponent	Tavsifi	O'qitishdagi ahamiyati
Grammatik kompetensiya	Tilning grammatik qoidalari va leksik birliklarini bilish	To'g'ri gap tuzish va terminlarni to'g'ri qo'llash
Diskurs kompetensiya	Nutqning izchil va mantiqiy tashkil etilishi	Tibbiy matnlar va klinik holatlarni tushuntirish
Sitsiokultural kompetensiya	Tilni ijtimoiy va madaniy kontekstga mos qo'llash	Bemor va shifokor o'rtasidagi muloqot
Strategik kompetensiya	Kommunikatsiyada qiyinchiliklarni bartaraf etish	Tibbiy muloqatda tushunmovchilikni hal qilish

### 1-jadval.

Kommunikativ kompetensiya nazariyasi keyinchalik ko'plab tadqiqotchilar tomonidan rivojlantirildi. Xususan, Savignon kommunikativ kompetensiyani tilni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llash qobiliyati sifatida talqin qiladi va uni chet tilini o'qitish jarayonining asosiy maqsadi sifatida ko'rsatadi (Savignon, 2018). Uning fikricha, kommunikativ kompetensiya til o'rganish jarayonida faqat nazariy bilimlarni egallash emas, balki tilni turli kommunikativ vaziyatlarda erkin qo'llash ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan metodlar majmuasi sifatida qaraladi. Richards kommunikativ yondashuvni tilni haqiqiy hayotiy vaziyatlarda qo'llashga yo'naltirilgan o'qitish modeli sifatida tavsiflab, unda autentik materiallardan foydalanish, o'quvchi markazli ta'limni tashkil etish hamda kommunikativ

vazifalarga asoslangan topshiriqlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi (Richards, 2015). Shuningdek, Nunan kommunikativ metodika doirasida task-based learning yondashuvini alohida ta'kidlab o'tadi. Uning fikriga ko'ra, real hayotiy vazifalarga asoslangan topshiriqlar til o'rganish jarayonini yanada samarali qiladi hamda talabalarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi (Nunan, 2004). Tibbiyot yo'nalishida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tibbiyot mutaxassislari kasbiy faoliyat jarayonida bemorlar, hamkasblar hamda xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan samarali muloqot olib borishlari zarur. Shu sababli tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish jarayoni kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlar asosida tashkil etilishi lozim.

### **Kommunikativ yondashuv tamoyillari**

Kommunikativ yondashuv tilni o'qitishda muloqotga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etishga qaratilgan bir qator metodik tamoyillarga asoslanadi. Ushbu tamoyillar tilni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuv quyidagi asosiy tamoyillar asosida amalga oshiriladi:

- kommunikativ vaziyatlarga asoslangan o'qitish;
- autentik materiallardan foydalanish;
- o'quvchi markazli ta'limni tashkil etish;
- juftlik va guruhlarda ishlash faoliyatini rivojlantirish;
- nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalash.

Mazkur tamoyillar tilni real kommunikativ kontekstda o'rganish imkonini beradi. Bunda talabalarning tilni faqat nazariy jihatdan o'zlashtirishi emas, balki uni amaliy muloqot jarayonida qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi. Larsen-Freeman va Anderson kommunikativ metodning muhim xususiyatlaridan biri sifatida talabalarning o'quv jarayonida faol ishtirok etishini ta'kidlaydilar. Ularning fikriga ko'ra, kommunikativ ta'lim jarayonida rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar va interaktiv topshiriqlardan foydalanish talabalarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega (Larsen-Freeman & Anderson, 2011). Shuningdek, Richards kommunikativ yondashuvni zamonaviy til o'qitish metodikasining eng samarali yo'nalishlaridan biri sifatida baholaydi. Uning ta'kidlashicha, kommunikativ yondashuvning asosiy maqsadi talabalarda tilni real hayotiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bunda o'quv jarayoni kommunikativ vazifalarga asoslangan topshiriqlar, autentik materiallar hamda o'quvchi markazli ta'lim orqali tashkil etiladi (Richards, 2015). Shu sababli kommunikativ yondashuv til o'qitish jarayonida nazariy bilimlarni amaliy

kommunikativ faoliyat bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi hamda talabalarning muloqot ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga xizmat qiladi.

### **ESP va tibbiy ingliz tilini o'qitish**

ESP (English for Specific Purposes) metodikasi chet tilini o'qitishda o'quvchilarning kasbiy ehtiyojlari va professional faoliyati bilan bog'liq kommunikativ vazifalarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Mazkur yondashuv tilni umumiy kommunikativ maqsadlarda emas, balki aniq kasbiy faoliyat doirasida qo'llashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi. Hutchinson va Waters ESP metodikasining asosiy xususiyati o'quv jarayonini o'quvchilarning professional faoliyati bilan bevosita bog'lashdan iborat ekanligini ta'kidlaydilar (Hutchinson & Waters, 1987). Ularning fikricha, ESP o'quvchilarning ehtiyojlariga asoslangan yondashuv bo'lib, unda tilni o'rganish jarayoni muayyan kasbiy vazifalarni bajarishga qaratiladi. Tibbiyot yo'nalishida ingliz tilini o'qitish ham ESP metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tibbiy ingliz tili o'ziga xos terminologik tizimga ega bo'lib, unda grek va lotin tillaridan kirib kelgan terminlar keng qo'llaniladi. Shu sababli tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonida nafaqat umumiy til ko'nikmalarini, balki kasbiy kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tibbiyot yo'nalishidagi talabalarga ingliz tilini o'qitishda quyidagi kommunikativ faoliyatlar muhim ahamiyatga ega:

- bemor bilan professional muloqot olib borish;
- bemorning kasallik tarixini yozish va tahlil qilish;
- klinik holatlar asosida muammoli vaziyatlarni muhokama qilish;
- tibbiy terminologiyadan foydalangan holda ilmiy prezentatsiyalar tayyorlash;
- tibbiy hujjatlar va ilmiy maqolalarni o'qish va tahlil qilish.

Mazkur faoliyatlar talabalarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi hamda ularni real

tibbiy muhitda ingliz tilidan samarali foydalanishga tayyorlaydi. Zamonaviy metodikada ESP kurslari ko'pincha kommunikativ yondashuv va vazifaga asoslangan ta'lim (Task-Based Learning) bilan uyg'unlashtiriladi. Nunan task-based learning metodini kommunikativ yondashuvning muhim komponenti sifatida baholaydi. Uning fikricha, real hayotiy vazifalarga asoslangan topshiriqlar talabalarning tilni amaliy qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi hamda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish jarayonini samaraliroq qiladi (Nunan, 2004). Shu sababli tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv hamda ESP metodikasini integratsiyalash talabalarning kasbiy til kompetensiyasini rivojlantirishda muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

#### **Metodik tahlil: O'zbekistonda tibbiy ingliz tilini o'qitish muammolari**

O'zbekiston tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyoti tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim jarayonining metodik samaradorligiga ta'sir etayotgan muhim omillardan biri – o'quv faniga ajratilgan vaqtning cheklanganligidir. Amaldagi o'quv rejalarga ko'ra, ko'plab tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tili fani asosan bir semestr doirasida o'qitilishi kuzatiladi. Mazkur holat talabalarning boshlang'ich til tayyorgarligi darajalari turlicha bo'lgan sharoitda qisqa vaqt ichida ularni yuqori darajadagi kommunikativ kompetensiyaga, xususan B2 darajasiga olib chiqish vazifasini metodik jihatdan murakkablashtiradi. Bundan tashqari, amaliyotda qo'llanilayotgan o'quv materiallarining aksariyati xorijiy manbalarga asoslangan bo'lib, ular har doim ham mahalliy ta'lim muhiti, talabalarning lingvistik tayyorgarligi va mintaqaviy kommunikativ ehtiyojlariga to'liq mos kelavermaydi. Natijada dars jarayonida nutq faoliyatining barcha turlarini – tinglash, gapirish, o'qish va yozishni integratsiyalash yetarli darajada ta'minlanmaydi. Bu borada Nunan til o'qitish jarayonida nutq faoliyatining barcha turlarini –

tinglash, gapirish, o'qish va yozishni integratsiyalashgan holda rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi (Nunan, 2004). Mazkur ko'nikmalarni kompleks rivojlantirish talabalarning real kommunikativ vaziyatlarda tilni samarali qo'llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Xususan, tibbiyot sohasiga oid terminologiya tizimli ravishda o'zlashtirish uchun zarur metodik sharoitni talab etadi. Ayniqsa, tibbiy terminologiya o'zining semantik murakkabligi, sohaviy aniqligi va professional kommunikatsiyada faol qo'llanilishi bilan ajralib turishi sababli uni samarali o'rgatish uchun yetarli vaqt, bosqichma-bosqich mashqlar tizimi hamda kasbiy yo'naltirilgan metodik yondashuv zarur hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quv vaqtining yetarli darajada rejalashtirilishi, mintaqaviy ta'lim ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv materiallarini ishlab chiqish hamda nutq faoliyati ko'nikmalarini integratsiyalashgan holda rivojlantirish tibbiyot talabalari uchun sohaviy terminologiyani o'zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim metodik omil sifatida qaraladi.

#### **Xulosa**

Yuqoridagi nazariy va metodik tahlillar shuni ko'rsatadiki, tibbiyot yo'nalishida ingliz tilini o'qitish jarayonida kommunikativ yondashuv hamda ESP metodikasiga asoslangan integrativ ta'lim modeli muhim metodik ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ingliz tilini o'qitish amaliyotida ayrim tizimli muammolar, jumladan o'quv vaqtining cheklanganligi, xorijiy manbalarga haddan tashqari tayanish, nutq faoliyatining barcha turlarini yetarli darajada integratsiyalanaslik hamda tibbiy terminologiyani tizimli o'rgatishga qaratilgan metodik yondashuvlarning yetishmasligi mavjudligini ko'rsatdi. Mazkur omillar talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasini to'liq shakllantirish jarayonini murakkablashtiradi. Shu sababli tibbiyot talabalari uchun ingliz tilini o'qitish jarayonini kommunikativ yondashuv, ESP metodikasi va vazifaga asoslangan ta'lim



texnologiyalarini uyg'unlashtirish asosida tashkil etish, autentik materiallardan foydalanish hamda nutq faoliyatining barcha turlarini integratsiyalash orqali sohaviy

terminologiyani bosqichma-bosqich o'zlashtirishga yo'naltirish ta'lim samaradorligini oshirishning muhim metodik sharti hisoblanadi.

### References:

1. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
2. Hutchinson, T., & Waters, A. (1987). *English for Specific Purposes: A learner-centered approach*. Cambridge University Press.
3. Hymes, D. (1972). *On communicative competence*. In J. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Penguin.
4. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and principles in language teaching*. Oxford University Press.
5. Minasova, S. G. (2000). *Language and intercultural communication*. Moscow University Press.
6. Nunan, D. (2004). *Task-based language teaching*. Cambridge University Press.
7. Richards, J. C. (2015). *Communicative language teaching today*. Cambridge University Press.
8. Savignon, S. J. (2018). *Communicative competence*. Oxford University Press.